XALQ DEPUTATLARI CHIRCHIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 12-may VII-25-36-10-150-K/26 Chirchiq shahar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarorining ijrosi yuzasidan Chirchiq shahrida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Chirchiq shahar Kengashi **qaror qiladi**:

1. Shahar hokimi o‘rinbosari U.Rasulmatovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosi yuzasidan ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar markaziy ko‘chalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun chiqindilarni olib chiqib ketish va atrof-hududni obodonlashtirish (ko‘kalamzorlashtirish) bo‘yicha xizmat ko‘rsatish tartibi va majburiy to‘lovlar tariflari ilovaga muvofiq belgilansin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi A.Abdullayevga hamda ijrosi shahar hokimi o‘rinbosari U.Rasulmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

UMAROV MAXSUD SAYDALIYEVICH

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2026-yil 12-maydagi
VII-25-36-10-150-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Shahar markaziy ko‘chalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun chiqindilarni olib chiqib ketish va atrof-hududni obodonlashtirish (ko‘kalamzorlashtirish) bo‘yicha xizmat ko‘rsatish tartibi va majburiy to‘lovlar tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**O‘lchov birligi**	**Tarif miqdori (so‘m)** (QQS bilan)
Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	97 316,8
Yuridik shaxslar uchun	Obodonlashtirish	m^2	7 500,0